

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALIKLARI

**Ablayeva Sevara**

Qo'qon universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarini o'rganishda rivojlantiruvchi muammoli va pedagogik texnologiyalarni asosiy jihatlarini o'zida ifodalovchi "Multimedia-dars", "Slaydli dars", "Seminar dars" kabilarni qo'llash, boshlang'ich sinf o'quvchilarining media vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, multimedia vositalari pedagogik nuqtayi nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv va boshqalar to'g'risida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, dars, texnologiya, multimedia-dars, o'quvchilar, vositalar, ta'lim-tarbiya, kompyuter.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida mediamadaniyatni shakllantirishga doir turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmonida "Uzliksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim tizimini xizmatlari, imkoniyatlarini oshirish, maqsadida dars jarayonida mediamahsulotlardan erkin foydalanish yo'lga qo'yilishini kerakligi ma'lum qilindi. Yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi bir qismini "Kompyuterdan foydalanib o'tilsa, qanday samara berishini, boshqacha aytganda, kompyuterni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, bu jarayon uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek, yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida, xususan, o'quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa, o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan,

multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro interfaol aloqalarini ta'minlashda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Shu munosabat bilan texnologik ta'limi o'kituvchilarini oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yunalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi bir qismini "Kompyuterdan foydalanib o'tilsa, qanday samara berishini, boshqacha aytganda, kompyuterni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, bu jarayon uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek, yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida, xususan, o'quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa, o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda. Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan, multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro interfaol aloqalarini ta'minlashda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Shu munosabat bilan texnologik ta'limi o'kituvchilarini oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differensatsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim. Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin. Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKT'dan foydalanish yillari davomida 1-sinf dan 3-sinfgacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

“Tabiatshunoslik” fani bo'yicha barcha mavzulari bo'yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: “O'lkamiz suv havzalari”, “Ona zamin”, “O'rmon va dalalar — tabiat boyligi”, “Qishloq xo'jaligi sohalari”, “Bizning o'lka”, “Yer osti boyluklari”, “O'lkamiz hududiy tuzilishi”, “O'lka chorvachiligi va o'simliklari” va boshqalar. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari

rivojlanadi, soʻzning toʻgʻri va koʻchma maʼnosini topishga, sinonimlarni toʻgʻri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga oʻrgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bagʻishlangan “Teskari oʻyin” testidan foydalanish oʻquvchilarga darsni tushuntirishga samarali taʼsir etadi. Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda oʻquvchining koʻzi, miyasi va qoʻllari ishtirok etadi, oʻyin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, taʼlim jarayoni jadalligi kerakli darajasini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega boʻladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, oʻquvchilar dars materiallarni mustaqil oʻrganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar. Barcha oʻquv fanlarida qoʻshimcha va rivojlantirish materiallari sifatida koʻplab videofilm hamda fotolavhalar bilan oʻlkashunoslik materialidan foydalanish mumkin.

Multimedia darsining aniq afzalliklaridan biri bukengaytirilgan koʻrish. K. D. Ushinskiyning mashhur iborasini eslang: “Bolalarning tabiati aniq koʻrinishni talab qiladi. Bolaga unga tanish boʻlmagan beshta soʻzni oʻrgating, va u uzoq vaqt davomida behuda azob chekadi; lekin yigirmata bunday soʻzlarni rasmlar bilan bogʻlang - va bola ularni pashshada oʻrganadi. Siz bolaga juda oddiy fikrni tushuntirasiz va u sizni tushunmaydi; siz qiyin rasmni oʻsha bolaga tushuntirasiz va u sizni tezda tushunadi ... Agar siz soʻzlarni olish qiyin boʻlgan sinfga kirsangiz (va biz bunday darslarni qidirmaymiz), rasmlarni koʻrsatsangiz, sinf gapira boshlaydi va eng muhimi gapiring. ozod ...”

Vizualizatsiyadan foydalanish yanada muhimroq, chunki maktablarda, qoida tariqasida, jadvallar, diagrammalar, reproduksiya va rasmlarning zarur toʻplamlari mavjud emas. Bunday holda, proyektor bebaho yordam koʻrsatishi mumkin. Biroq, kutilayotgan samaraga taqdimotning baʼzi talablariga rioya qilish orqali erishish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi” toʻgʻrisidagi farmonida\_2017; PF-4947sonli
2. Muslimov N.A Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. -128 b.
3. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning oʻrni. Qoʻqon universiteti xabarnomasi, 806-808.
4. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qoʻqon universiteti xabarnomasi, 661-663..

5. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
7. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
8. SI Jumanova, G Mullaboyeva. BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA SHARQ VA G'ARB ALLOMALARINING QARASHLARIDAN FOYDALANISH Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 445-451
9. Soliyev Ilhomjon Sobirovich, Xoshimova Xulkaroy Xoshimjon qizi. Aqliy rivojlanishning mantiqiy masalalar yechishdagi ahamiyati. Yangi o'zbekiston pedagoglari axborotnomasi 1-jild, 5-son